“Odam bo‘lish qiyin” romani antroponimlarining fonosemantik tahlili

Tojixo‘jayeva Madinabonu Shuxratbek qizi
Andijon davlat universiteti
Filologiya va tillarni o‘qitish: O‘zbek tili
yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘lmas Umarbekovning “Odam bo‘lish qiyin” romanidagi antroponimlar fonosemantik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida ismlarning tovush tuzilishi va ularning semantik mazmuni o‘rtasidagi bog‘liqlik, shuningdek, antroponimlarning personajlar xarakterini ochib berishdagi badiiy-estetik vazifasi yoritib beriladi. Bugungi kunda tilshunoslik va psixologiya fanlarining integratsiyasi fonemalarni ham lingvistik, ham psixolingvistik jihatdan tadqiq etishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, muallif badiiy niyatini anglashda tanlangan nomlarning tovush qobig‘i va undagi semantik yuklamaga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi o‘zbek tilidagi antroponimlarda fonemalarning semantik xususiyatlarini aniqlash hamda mazkur tovushlar yig‘indisining o‘quvchi psixologiyasiga ta’sir etish mexanizmlarini ochib berishdan iborat.

Kalit so‘zlar: Fonosemantika, antroponimika, o‘zbek tili, O‘lmas Umarbekov, “Odam bo‘lish qiyin”, badiiy matn, personaj, psixolingvistika, fonema, semantik yuklama.

Аннотация. В данной статье проводится фоносемантический анализ антропонимов в романе Ульмаса Умарбекова «Трудно быть человеком» («Odam bo‘lish qiyin»). В рамках исследования освещается связь между звуковой структурой имен и их семантическим содержанием, а также художественно-эстетическая функция антропонимов в раскрытии характера персонажей. Сегодня интеграция лингвистики и психологии требует изучения фонем как с лингвистической, так и с психолингвистической точек зрения. В частности, особое значение приобретает анализ звуковой оболочки выбранных имен и их семантической нагрузки для понимания творческого замысла автора. Основная цель исследования заключается в определении семантических особенностей фонем в узбекских антропонимах и раскрытии механизмов воздействия совокупности этих звуков на психологию читателя.

Ключевые слова: фоносемантика, антропонимика, узбекский язык, Ульмас Умарбеков, «Трудно быть человеком», художественный текст, персонаж, психолингвистика, фонема, семантическая нагрузка.

Abstract. This article provides a phonosemantic analysis of anthroponyms in the novel "It is Hard to be a Human" ("Odam bo‘lish qiyin") by Ulmas Umarbekov. The study explores the connection between the phonetic structure of names and their semantic content, as well as the artistic and aesthetic functions of anthroponyms in revealing character traits. Today, the integration of linguistics and psychology requires the study of phonemes from both linguistic and psycholinguistic perspectives. In particular, it is crucial to focus on the sound structure and semantic weight of the chosen names to fully grasp the author's artistic intent. The main objective of the research is to identify the semantic features of phonemes within Uzbek anthroponyms and to uncover the mechanisms through which these sound combinations influence the reader's psychology.

Keywords: phonosemantics, anthroponymics, Uzbek language, Ulmas Umarbekov, "It is Hard to be a Human", literary text, character, psycholinguistics, phoneme, semantic weight.

Kirish. Fonosemantika – har bir tovush (vokal va konsonant) o‘zining artikulyatsion shaklidan tashqari, muayyan ma’no qobig‘iga ham egaligini o‘rganuvchi sohadir. Mazkur yo‘nalish tilshunoslik va psixologiya fanlarining integratsiyasi natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, u tovushlarning semantik xususiyatlarini tadqiq etadi. Fonosemantika so‘zning tovushidan ma’noni anglash va farqlashga imkon beradi. Shunday qilib, har qanday so‘z ikki ma’noga ega. Birinchi so‘z biron bir obyekt yoki jarayonni bildiruvchi belgi sifatida, ikkinchi so‘z o‘z – o‘zidan odamda reaksiyaga sabab bo‘ladigan tovushlar to‘plami sifatida. Voyaga yetgan odamning ongi so‘zlarni asosan birinchi ma’no bilan tinglash bilan band bo‘lganligi sababli, ikkinchi so‘zga reaksiya ongsiz ravishda o‘tadi va odam tomonidan ma’lum bir hissiy fon shaklida boshdan kechiriladi. So‘zning bu ikkinchi ma’nosi fonosemantik ma’no deb ataladi. Tildagi har bir fonema o‘ziga xos semantik yuklamaga, muayyan akustik chastotaga va mazmuniy ko‘lamga ega. Masalan, "b" undoshi o‘z tabiatiga ko‘ra salmoqdorlik, barqarorlik, yirik hajm va og‘irlik kabi semantik qirralarni ifodalash xususiyatiga ega. Masalan, qarindoshlik atamalari tahlil qilinganda, dada (o‘zbek), padar (tojik), ata (uyg‘ur) va hatto mama (gruzin) kabi so‘zlarning aksariyatida "a" fonemasi ustunlik qilishini kuzatamiz. Tilshunoslikda ushbu tovush o‘zining ochiq va keng artikulyatsiyasi hamda akustik tabiati tufayli nafaqat "kattalik" yoki "yiriklik" tushunchasini, balki fundamental (birlamchi) va universal mazmunni ham ifodalaydi. Shuning uchun ham insoniyatning ko‘plab tillarida ota-ona kabi muhim qarindoshlik atamalari aynan shu fonema atrofida shakllangan.

Shunga alohida e’tibor berish lozimki, so‘zning fonestemantik tarkibi uning semantik tarkibi kabi o‘ta murakkab qurilma bo‘lib, muayyan fonostema o‘z qo‘shnilari ta’siri, shuningdek, konstitutiv ta’sirlar natijasida o‘zining semantik tavsifiga teskari holatda ham turishi mumkin, ya’ni turli tillardagi bir xil ma’noni anglatuvchi so‘zlarni qiyosiy tahlil qilish, muayyan tovushning har qanday holatda ham bir xil semantik yuklamani saqlab qolishi shart emasdek qilib ko‘rsatadi. Jumladan, мчаться (ruscha) – chopmoq, dash (inglizcha) - juda tez, qisqa masofaga otilib yugurish, mirbis (gruzincha) – shiddat bilan yugurish, medavid (tojikcha) - shiddat bilan harakatlanish so‘zlariga e’tibor qaratilsa, fonosemantikada "tezkorlik", "shiddatlilik" va "qat’iylik" kabi semantik xususiyatlarga ega deb hisoblanadigan "r" tovushi barcha tillarda ham bir xil estetik-semantik vazifa bajarmayotganiga guvoh bo‘lamiz.

Ushbu masalani chuqurroq tahlil qilish uchun Platon nazariyasiga e’tibor qaratish lozim. U turli xalqlar uchun yaratilgan va o‘xshash maqsadlar uchun xizmat qiluvchi qurollarning turli shakl va ko‘rinishda bo‘lishi va turli materiallardan tayinlangan bo‘lishi mumkin, ammo bu ularningg tayinlanishi va shakli o‘zaro mos emas degani emas. Ruslarning ikki qo‘lli qilichi, turk yatag‘ani va d'Artanyanning shpagasini solishtiraylik. Qanchalik har xil shakllar! Ammo bu shakllarning barchasi buyumlarning maqsadiga (mazmuniga) juda mos keladi. Qolaversa, agar diqqat bilan qarasangiz, shakllarida ham umumiy jihatlar ko‘p: bularning barchasi dastalik, cho‘zinchoq, o‘tkir uchli buyumlardir. Qilichni, masalan, shar yoki kub shaklida tasavvur qilishning umuman iloji yo‘q. Va bu turdagi qurollar yasalgan materiallar ham o‘xshash bo‘lishi kerak — pishiq, egiluvchan, qattiq. Axir, shpagani jundan yoki jangovar qilichni oynadan yasab bo‘lmaydi-ku. Xulosa qilib aytganda, so‘zlar turli tillarda turlicha fonetik ko‘rinishga ega bo‘lsa va ularning tarkibi turlicha vokal hamda konsonantlardan tashkil topgan bo‘lsa-da, ular inson psixologiyasiga o‘xshash ta’sir ko‘rsatish xususiyatiga ega. Bu hodisa shuni anglatadiki, bir tilda ma’lum bir tovush zimmasiga yuklangan semantik vazifa boshqa tilda boshqa bir tovush orqali amalga

oshirilsa-da, bu tovushlarning kishi ongiga ta’sir etish mexanizmi ko‘p jihatdan universal tabiatga ega.

Asosiy qism. O‘lmas Umarbekovning “Odam bo‘lish qiyin” asarida personajlarga ism tanlash jarayoni shunchaki badiiy tasodif emas, balki muallifning qahramon xarakterini belgilash, uning ruhiy qiyofasini shakllantirish va taqdir chiziqlarini oldindan bashorat qilishga qaratilgan puxta o‘ylangan estetik strategiyasidir. Adabiyotshunoslikda antroponimlar (shaxs nomlari) ko‘pincha qahramonning ijtimoiy va psixologik portretini chizishda kod vazifasini bajaradi.

Ushbu asarni fonosemantik nuqtayi nazardan tadqiq etish — tovushlarning badiiy-ifodaviy xususiyatlarini, ularning leksik ma’no bilan uyg‘unlashuvini hamda muallif niyatidagi yashirin qatlamlarni aniqlash imkonini beradi. Tovush tarkibidagi fonemalarning akustik tabiati (jarangli yoki jarangsizligi, unlilarning ochiq yoki yopiqligi) qahramon xarakteridagi shiddat, muloyimlik, qat’iyat yoki zaiflik kabi jihatlarni yuzaga chiqaruvchi kuchli vositadir. Demak, ismning fonetik tahlili nafaqat tilshunoslik, balki qahramonlar ruhiyatini chuqurroq anglash va asarning badiiy konsepsiyasini to‘liq ochib berishda fundamental metodologik ahamiyat kasb etadi.

Asar antroponimlarining fonosemantik xususiyatlarini aniqlash maqsadida asar mazmuni bilan notanish bo‘lgan talabalar o‘rtasida empirik so‘rovnoma o‘tkazildi. Tadqiqotda Abdulla, Gulchehra, Sayyora va Samad ismlari tanlab olindi. So‘rovnomadan ko‘zlangan asosiy maqsad — respondentlarning ushbu antroponimlarni ilk bor eshitish jarayonida ularga beradigan dastlabki psixologik xarakteristikasini va ismlar orqali personajlarning taxminiy xarakter-qiyofasini belgilab olishdan iborat edi.

So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning 53 foizi antroponimlarni Gulchehra — Abdulla va Samad — Sayyora juftliklariga ajratdi. Ismlarning fonetik tahlili borasida fikr bildirgan ishtirokchilar Abdulla va Samad antroponimlaridagi sonor va unlilarning o‘zaro uyg‘unligini ularning "yumshoq" jaranglashiga, shuningdek, nomuayyan va o‘zgaruvchan xarakterga ega personajlar sifatida qabul qilinishiga asos bo‘luvchi omil deb baholadilar.

Ushbu tadqiqot natijalari bilan tahlil jarayoni qanchalik mos kelishini aniqlash maqsadida har bir antroponimning fonossemantik xususiyatlarini tahlil qilish talab etiladi.

Samad antroponimidagi s, m sonor va sirg‘aluvchi, d esa portlovchi konsonantlar tizimi qahramon ruhiyatining murakkab qirralarini ifodalaydi. Xususan, s fonemasi semantik jihatdan sog‘lom fikrlilik, qat’iyat, hukmronlikka intilish va takabburlik kabi xususiyatlarni qamrab olsa, m undoshi g‘amxo‘rlik, mehnatsevarlik hamda pedantriyaga moyillik kabi fonosemantik xususiyatlarni namoyon etadi. Portlovchi d konsonanti esa qahramonning xushmuomalaligi va uning hissiyotlarini boshqarishdagi o‘ziga xos ta’sirchanlik (ekstrasensor qobiliyatlar) xususiyatlariga ishora qiladi. So‘z tarkibidagi a vokalizmi esa mazkur fonemalar majmuasiga qudrat va qulaylik tushunchalarini yuklaydi. Mazkur fonosemantik tahlil asosida Samad antroponimi xushmuomala, sog‘lom fikrli va atrofidagilar uchun qulay shaxs qiyofasini gavdalantiradi. Biroq, ismi tarkibidagi fonemalarning o‘zaro uyg‘unligi uning tabiatan yumshoq ekanligini, aynan shu xususiyati sababli hayotiy maqsadlariga erishishda ko‘pincha qiyinchiliklarga duch kelishini yoki "pand yeyishini" badiiy bashorat qiladi. Demak, Samad ismi nafaqat personajning tashqi xarakterini, balki uning ichki olami va taqdiridagi ziddiyatlarni ham o‘zida mujassam etgan.

Sayyora antroponimining fonosemantik tahlili qahramon ruhiyatining murakkab va ziddiyatli qirralarini ochib beradi. Ism tarkibidagi fonemalarning akustik tabiati uni shunchaki ism emas, balki qahramonning xarakter kodi sifatida namoyon etadi.

Ismning boshlanishidagi "S" sirg‘aluvchi undoshi tilshunoslikda qat’iyat, sog‘lom fikrlilik, yetakchilikka intilish hamda ma’lum darajadagi ichki intizomni ifodalaydi. Bu qahramonning atrofdagilarga o‘z qarashlarini o‘tkaza olish va mustaqil pozitsiyaga ega bo‘lish qobiliyatidan darak beradi. Ism tarkibida uch marta takrorlanuvchi "A" vokalizmi esa ochiq va keng artikulyatsiyasi tufayli qahramon tabiatidagi ochiqko‘ngillik, erkinlikka intilish hamda keng qamrovli dunyoqarashni belgilaydi. "Y" sonor yarimunlisining ism o‘rtasida kelishi qahramonning emotsional moslashuvchanligini, atrof-muhit bilan oson til topisha olishi va nozik didga egaligini ko‘rsatsa, "O" unlisining vazminligi qahramon xarakteridagi donishmandlik va muvozanatga ishora qiladi. Ismning yakuniy qismidagi "R" sonor tovushi esa o‘zining vibratsiyali tabiati bilan qahramon shijoati, harakatchanligi hamda "o‘z so‘ziga egalik" fazilatini tasdiqlaydi. Demak, Sayyora ismi o‘zida "qarama-qarshiliklar muvozanati"ni mujassam etgan antroponimdir. U bir vaqtning o‘zida ham irodali, mustaqil va hayot yo‘lida maqsadi sari intiluvchan shaxsni, ham atrofdagilarga ta’sir o‘tkaza oladigan, biroq ayni vaqtda ochiqko‘ngil hamroh qiyofasini gavdalantiradi. Ushbu fonetik uyg‘unlik Sayyora personajini asarda o‘z prinsipiga ega bo‘lgan, murakkab, ammo jozibali qahramon sifatida namoyon etadi.

Abdulla antroponimi tarkibidagi fonemalar o‘zaro uyg‘unlashib, qahramonning ruhiy olami va xarakteridagi o‘ziga xos muvozanatni ifodalaydi. Bu ism fonetik jihatdan barqarorlik va samimiylikni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, qahramonning asardagi o‘rnini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ismning boshlanishidagi "A" vokalizmi inson nutqida eng ochiq va keng talaffuz qilinadigan tovush bo‘lib, u qahramonning ochiqko‘ngilligi, dunyoga nisbatan samimiy munosabati va oliyjanoblikka intilishini ifodalaydi. "B" portlovchi undoshi esa ismga ma’lum bir vazminlik va ishonchlilik baxsh etadi; u shaxsning o‘z so‘ziga ega bo‘lishi va qat’iyatli harakat qila olish qobiliyatiga ishora qiladi.

Ismning markaziy qismidagi "D" tovushi — tish-milk portlovchi undoshi bo‘lib, u muloqotda xushmuomalalik, nazokat va insonlar bilan oson til topisha olish fazilatlarini yuzaga chiqaradi. Ism tarkibidagi "LL" (qo‘sh undosh) sonorli tovushlarning ketma-ket kelishi Abdulla antroponimiga o‘ziga xos "yumshoqlik" va "ravonlik" bag‘ishlaydi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, sonorlarning bunday takrorlanishi qahramonning mojarolarga moyil emasligi, aksincha, diplomatik va murosali yo‘lni tanlashga moyil ekanligini anglatadi. Yakuniy "A" vokalizmi esa ismga xotirjamlik va yakuniy barqarorlik yuklaydi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla ismi — "samimiy qat’iyat" va "diplomatik yumshoqlik" uyg‘unligidir. Fonosemantik tahlil shuni ko‘rsatadiki, bu personaj o‘z ichki dunyosida mustahkam irodaga ega bo‘lsa-da, tashqi munosabatlarda xushmuomala, xotirjam va atrofdagilar uchun ishonchli hamroh qiyofasini namoyon etadi. U hayot qiyinchiliklariga qarshi keskin kurashishdan ko‘ra, vaziyatni yumshatish va muammolarni murosali yo‘l bilan hal etishni afzal ko‘radigan shaxs sifatida gavdalanadi.

Asardagi Gulchehra antroponimi personajning nafaqat ruhiy portretini, balki uning hayot yo‘li va fojiali taqdirini ham o‘zida mujassam etgan estetik koddir. Ism tarkibidagi fonemalarning akustik tabiati qahramonning tashqi go‘zalligi va ichki dunyosidagi noziklik o‘rtasidagi uyg‘unlikni yuzaga chiqaruvchi badiiy vosita vazifasini bajaradi.

Ismning boshlanishidagi "G" portlovchi undoshi qahramonning hayotga bo‘lgan shijoati va samimiyligini ifodalasa, "L" sonor undoshi Gul bo‘g‘iniga o‘ta muloyimlik, nafislik va sirg‘aluvchanlik bag‘ishlaydi. Bu kombinatsiya qahramonning tabiatan ta’sirchan, nozik va pokiza qalb egasi ekanligini ko‘rsatadi. Chehra bo‘g‘inidagi "CH" affrikatasi va "R" tovushining vibratsiyasi esa uning tashqi muloyimligi ostida yashiringan

qat’iyat va o‘zligini anglashga bo‘lgan ichki intilishni ochib beradi. "H" tovushining nafasli xususiyati uning kechinmalaridagi samimiyatni, yakuniy "A" vokalizmi esa hayotiy ochiqlik va yorqinlikni ifodalaydi.

Biroq ismning fonetik jozibasi uning fojiali taqdiri bilan bevosita bog‘liq. Ismdagi sonor tovushlarning ko‘pligi qahramonning o‘ta ta’sirchan va mo‘rt ekanligini anglatib, uni hayotning dag‘al va shafqatsiz zarbalari qarshisida himoyasiz qoldiradi. Gul leksemasi bilan boshlanishi uning umri kabi go‘zal, ammo tez o‘tkinchi ekanligiga ishora qilsa, chehra so‘zining ma’nosi uning yuzidagi va qalbimdagi go‘zallikning asar yakunida barham topishini bashorat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Gulchehra ismi — nafosat va irodaning badiiy sintezidir. Fonosemantik tahlil shuni ko‘rsatadiki, ismning fonetik yumshoqligi qahramonning zaifligini emas, balki u dunyo o‘ta shafqatsiz bo‘lgan muhitda o‘zining ma’naviy pokligini aynan shu nafislik orqali saqlab qolishga intilgan yorqin nuri bo‘lganini anglatadi. Qahramonning asar oxiridagi fojiali o‘limi — nafislikning dag‘allik qarshisidagi mag‘lubiyati, ammo ma’naviy g‘alabasi sifatida namoyon bo‘lib, ism tarkibidagi tovushlar uyg‘unligi uning qismati kabi ham jozibali, ham o‘tkinchi ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa. O‘lmas Umarbekovning “Odam bo‘lish qiyin” romanidagi antroponimlar fonosemantik tahlili shuni ko‘rsatadiki, muallif qahramon ismlarini tanlashda tasodifiy yondashuvdan yiroq bo‘lib, har bir tovushning akustik va semantik tabiatiga tayanadi. Fonosemantik metodologiya asosida o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, ism tarkibidagi fonemalar majmuasi personajning ijtimoiy-psixologik portretini chizishda kod vazifasini bajarib, uning xarakteri, ruhiy kechinmalari va hatto badiiy bashorat qilingan taqdir yo‘lini o‘zida mujassam etadi.

Shu boisdan, antroponimikani fonosemantik nuqtayi nazardan tadqiq etish adabiyotshunoslikda qahramon ruhiyatini va muallifning estetik strategiyasini ochib berishda fundamental metodologik ahamiyat kasb etadi. O‘tkazilgan empirik so‘rovnomalar va nazariy tahlillar, tovushlarning inson ongiga ta’sir etish mexanizmi universal tabiatga ega ekanligini hamda badiiy matnda qahramon ismining "qismat muhrlanishi" vazifasini o‘tashini yana bir bor tasdiqlaydi.

Adabiyotlar:

1. Erkinova S. A. Fonosemantika tilshunoslikning alohida sohasi sifatida // Innovation: The journal of Social Sciences and Researches. – Toshkent, 2023. – Vol. 1. Is. 5. – B. 156–160.
2. Juravlyov A. P. Zvuk i smisl. – Moskva: Prosveshcheniye, 1991. – 160 s.
3. Kabilova Z. Matnning fonosemantik tadqiqi // Filologiya va pedagogika. – Toshkent, 2026. – № 2. – B. 12–15.
4. O‘zbek tili grammatikasi. I jild. So‘z yasalishi va morfologiya / Nashrga tayyorlovchi: G. A. Abdurahmonov va boshq. – Toshkent: Fan, 1975. – 510 b.